

MEHMONXONAGA DOIR TERMINLARNI O‘QITISHDA O‘ZBEK, INGLIZ VA KOREYS TILLARINING QIYOSIY TADQIQI

Akbarov Alisher Ahmadjon o‘gli

O‘zbekiston-Koreya xalqaro universiteti tarjimoni

alisherakhmatjonovich@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada mehmonxonaga aloqador bir qancha terminlarning o‘zbek, ingliz va koreys tillarida ifodalanishi qiyoslangan. Shuningdek, mehmonxonalarining bir qancha turlari izohlangan. Aksariyat so‘zlar bevosita ingliz yoki koreys tilidagi lug‘at va kitoblardan olingan bo‘lib, ayniqsa, ushbu tillarni biladigan insonlarga anchayin o‘rganishga qiziq va foydali manbaa bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Kichik mehmonxonalar, o‘rtacha mehmonxonalar, katta mehmonxonalar, mega mehmonxonalar, iqtisodiy mehmonxonalar, konvensiya mehmonxonalar, kurort mehmonxonalar, bosh boshqaruvchi.

KIRISH

Bugungi rivojlanib, tez o‘zgarib borayotgan zamonimizda har qanday sohada bo‘lgani kabi, turizm sohasida ham yangidan-yangi atamalar va so‘zlar globallashib, bizning yurtimizda ham keng qo‘llanilmoqda. Shulardan muhim bir turi borki, usiz turizm sohasini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bu, albatta, mehmonxonalar sohasidir. Quyidagi maqola orqali mehmonxonalar sanoatiga qiziqishi bo‘lgan, shu bo‘yicha o‘qiyotgan yoki ishlayotgan shaxslarga, umuman, sohaga doir tushunchalarni o‘rganishni xohlaydigan har kimga keng jamoatchilikka ma’lum miqdorda yengillik qilish rejalashtirilgan.

ASOSIY QISM.

“Introduction to Front Office” kitobida mehmonxonalarining hajm bo‘yicha qanday turlarga bo‘linishi haqida shunday ma’lumotlar keltirilgan:

Small hotels(kichik mehmonxonalar): 1 dan 25 tagacha xonasi mavjud

Medium hotels(O‘rtacha mehmonxonalar): 26 dan 100 tagacha xonasi mavjud

Large hotels(Katta mehmonxonalar): 101 dan 300 tagacha xonasi mavjud

Extra large hotels(juda katta mehmonxonalar): 301 dan 999 tagacha xonasi mavjud

Mega hotels(Mega mehmonxonalar): 1000 dan ortiq xonasi mavjud.¹

AQSH ning Las Vegas shahrida eng ko‘p mega hotellar mavjud. Chunki turizm biznesi,mehmonxonalar,kazino biznesi kabi bir qancha ilg‘or sohalar aynan,shu shaharda rivojlanishning cho‘qqisiga yetgan.

Quyida esa turli xil katta-kichik hajmdagi mehmonxonalarining nomlanishlari keltirilgan. Shuningdek,aksariyat mehmonxonalarda uchraydigan bo‘limlar ham tavsiflangan.

1. Yotoq joyi,mehmonxona biznesi 숙박업[sukbakop]

Oddiy aholi uchun turar-joy va taom kabi nomoddiy/moddiy xizmatlarni ta‘minlab berish orqali boshpana imkoniyatini taqdim etadigan biznes.

2. Iqtisodiy mehmonxona 상용호텔[sangyong hotel] (commercial hotel)

Asosan biznes uchun va rasmiy maqsadlardagi mijozlar tomonidan foydalaniladigan biznes mehmonxona

3. Konvensiya mehmonxona 컨벤션호텔 (convention hotel)

Majlislarni o‘tkazish uchun katta o‘lchamdagi mehmonxona bo‘lib, katta majlislar zali va avtoturargohga ega bo‘lgan mehmonxona.

4.Kurort mehmonxona 리조트호텔 (resort hotel)

Turistik joylar,yozgi/qishgi oromgohlar,dengiz bo‘ylari,tog‘-adirliliklar kabi sog‘likni

¹“Introduction to Front Office” , Uttarkhand Open University.12-bet.

tilash joylari yoki issiq buloqlar hududlarida qurilgan mehmonxona bo'lib, dam oluvchilarning ruhi va tanasiga orom beradigan sharoitlarga ega bo'lgan mehmonxona.

5. Apartment mehmonxona 아파트먼트호텔 (apartment hotel)

(residential hotel)의 일종 Ko'pincha qariyalar uchun uzoq muddatli foydalanish maqsadidagi mehmonxona bo'lib, residential hotel (doimiy istiqomat mehmonxonasi) ning bir turidir

6. Kazino mehmonxona 카지노호텔 (casino hotel)

Kazino mijolari uchun qurilgan mehmonxona bo'lib, dabdabali shoular, qo'shimcha shart-sharoitlar, arzon xonalar orqali mijozni jalb qilishadi.

7. 트랜지언트호텔 (transient hotel)

Ko'pincha 1~2 kunlik qisqa muddatli mehmonlar uchun ishlaydigan mehmonxona

8. 레지덴셜호텔 (residential hotel)

Ko'pincha 1 haftadan uzoq boshpanadan foydalanadigan mehmonlar uchun ishlab, mehmonxona uslubidagi oqsoch xizmati xizmati taqdim etilib, eng minimum oziq-ovqat xizmati taqdim etilib, oshxona va avtoturargohiga ega bo'lgan mehmonxona.

9. Doimiy mehmonxona 퍼머넌트호텔 (permanent hotel) Apartment uslubidagi

uzoq muddatli mehmonlar uchun ishlaydigan eng minimum oziq-ovqat xizmati mavjud bo'lgan mehmonxona.

10. Airport hotel (공항호텔)

Aeroport bilan bevosita bog'langan yoki aeroport yaqinida joylashgan mehmonxona. Aeroport bilan masofaviy yaqinligi yuqoriligi uchun to'xtab o'tayotgan (stop over) turistlar orasida mashxur.

11. Hamyonbop mehmonxona. Budget hotel (버킷 호텔)

Boshpanani arzon mehmonxonalarda qilib, ovqatlanish va turizm faoliyati hashamatli tarzda amalga oshirishni xohlaydigan qatlamni hisobga olgan mehmonxona. Odatiy

mehmonxonalarning xona narxiga qaraganda 20~50 % miqdoricha arzon bo‘lib, asosiy xizmatlar(boshpana,ovqatlanish,telefon,dush,televizor) ga urg‘u berib hashamatli xizmatlarni taqdim etmaydi. Ayniqsa AQSH da juda rivojlangan mehmonxona shaklidir.

12.Oilaviy mehmonxona Family hotel (가족호텔)

Arzon narxda oilaviy kelgan mehmonlarga mo‘ljallangan shakl bo‘lib, umumiy ovqat pishirish xonasi yoki oila uchun mo‘ljallangan oshxonaga ega bo‘lib,ichki va tashqi sport jihozlariga ega bo‘lgan mehmonxona shaklidir.

13.Pension(펜션)

Yevropada boshlangan uslub bo‘lib, ingliz tilida gaplashuvchi davlatlardagi “guest house “tushunchasi bilan bir xil. Odatda boshqaruv va egalikni birga amalga oshirib,tunab qolish xonalari,ovqat,ichimliklarni faqat mijozga ta‘minlab beradi. Pansion mehmonxonaga qaraganda dabdabali bo‘lmasa ham,oilaviy muhit va xizmatni ta‘minlab beradi.

14.Bosh boshqaruvchi 호텔 총지배인 (GM: General Manager)

Mehmonxonaning eng katta boshqaruvchisi bo‘lib, mehmonxonaning ishlashi va boshqaruvining barcha vakolat,nazorat va mas‘uliyatiga ega bo‘lgan mansab

15.Mehmonxonaning yotoq xonalari bo‘limi(호텔 객실부문)

Mehmonxonaning eng muhim mahsuloti bo‘lmish yotoq xonalarini sotadigan bo‘lib hisoblanib,ko‘pincha xonalarni sotish va bron qabul qilish,xonalarni tozalash,kutib olish xizmatlarini bajaradi.

16.Mehmonxonaning oziq-ovqat bo‘limi 호텔 식음료부문

Mehmonlarga ovqat va ichimliklarni sotadigan bo‘lim hisoblanib,asosan,tantanalar zali,ichimliklar bo‘limi,ovqat pishirish bo‘limi,banketlar bo‘limi kabilardan tashkil topgan.

17.Mehmonxonaning qo‘shimcha shart-sharoitlar bo‘limi 호텔 부대시설부문 Mehmonxonada yotoq xonasi va oshxonadan tashqari sharoitlari hisoblangan fitness zali,kazino,o‘yin-kulgu/davolanish sharoitlarini o‘z ichiga oladi.

18.Mehmonxonaning boshqaruv bo‘limi 호텔 관리부문 Mehmonxonaning hisob-kitobi,hodimlarning maoshlari kabi buxgalteriya ishlari va moliya ta‘minoti hamda boshqaruvni samarali tarzda amalga oshirib,muhit,xavfsizlik,yong‘in xavfsizligini ta‘minlash kabilarni boshqaradi.

Xulosa.

Yuqorida bildirilgan fikrlarga xulosa qiladigan bo‘lsak, mehmonxona sohasida qo‘llanilayotgan atamalarning aksariyati ingliz tilidan kirib kelgan. O‘zbek va koreys tillarida ham ular ko‘pincha tarjima qilinmasdan, ingliz tilidagi kabi talqin qilinsa, sohada ishlaydiganlarga ham, sohani endi o‘rganayotganlarga ham, bevosita mijoz sifatida xizmatdan foydalanayotganlarga ham tushunarli va oson bo‘ladi. Ba’zi bir global so‘zlarni hamma tushuna olishi uchun yer yuzida eng ko‘p qo‘llaniladigan til bo‘lmish ingliz tilidagidek qo‘llayotgan rivojlangan Janubiy Koreya davlati bunga misol bo‘la oladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. “Introduction to Front Office” 12-bet. Uttarkhand Open University.
- 2.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5-jildli. Toshkent
- 3.Chet ellik talabalar uchun asosiy atamalar kitobi, 89-100-betlari. Dong-A universiteti (외국인 유학생 기초학문용어집 86-87-페이지.

동아 대학교) 홈페이지 (vebsayt): <http://www.donga.ac.kr>